Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО	1803
<i>Умурзакова Умида Наримановна</i>	
Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей	1807
<i>Хуррамова Гузал Равшановна</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari	1810
<i>Norov Nodir Jo'rayevich</i>	
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi	1814
<i>Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</i>	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1818
<i>Xaqberdiyeva Sh. T.</i>	
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	1823
<i>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</i>	
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri	1826
<i>Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi</i>	
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish	1829
<i>Nasiba Djumanioyozova Bekmamatovna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni	1833
<i>Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna</i>	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
<i>D. Teshaboyev, Z. Boymatova</i>	
Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
<i>Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi</i>	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
<i>Abdullayev Botirxon Ismoilovich</i>	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
<i>Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi</i>	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
<i>Abdurasulova Gulruh Xabibullaevna</i>	
Dizatriyal bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
<i>Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna</i>	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
<i>Ahmedova Nigora Dadahonovna</i>	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
<i>Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
<i>Asranbayeva Munojot</i>	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
Axmedjonova Nozigul Zaripovna	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari	1880
Bayzakova Malika	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
Botirova M. B.	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
Celal Aligan	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
D. G'. Akramova	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil)	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



ELEKTRODINAMIKA BO'LIMINI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ILMIY TADQIQOTLARNING ILMIY- METODIK TAHLILI

Abdullayev Botirxon Ismoilovich

Olmaliq davlat texnika instituti

"Matematika va tabiiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

ORCID:0009-0007-1926-7089

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizikaning elektrodinamika bo'limini o'qitishda mustaqil ta'limni empirik metod asosida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning mazmuni, empirik metodning didaktik imkoniyatlari hamda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, milliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili asosida o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, elektrodinamika, empirik metod, mustaqil ta'lim, o'quv-uslubiy adabiyot, tajriba, metodika.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of organizing independent learning in teaching the Electrodynamics section of physics based on the empirical method. The study highlights the content of educational-methodical literature and scientific research, the didactic potential of the empirical method, and its role in developing students' independent thinking. In addition, practical recommendations for improving educational resources have been developed based on the analysis of national and international studies.

Key words: physics education, electrodynamics, empirical method, independent learning, educational-methodical literature, experiment, methodology.

Аннотация: В данной статье проанализированы научно-теоретические основы организации самостоятельного обучения при преподавании раздела "Электродинамика" на основе эмпирического метода. В исследовании освещены содержание учебно-методической литературы и научных работ, дидактические возможности эмпирического метода и его роль в развитии самостоятельного мышления студентов. Кроме того, на основе анализа национальных и зарубежных исследований разработаны практические рекомендации по совершенствованию учебной литературы.

Ключевые слова: физическое образование, электродинамика, эмпирический метод, самостоятельное обучение, учебно-методическая литература, эксперимент, методика.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini chuqur o'qitish jarayonida, ayniqsa, elektrodinamika bo'limining o'ziga xosligi – nazariy konsepsiyalar, matematik formulalar va tajribaviy eksperimentlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois, mazkur bo'limni o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlarning mazmuni va metodik yondashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabaning nazariy bilimni o'zlashtirish bilan birga empirik ta'lim faoliyatiga jalb etilishi zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, o'quv adabiyotlari tarkibida tajriba va kuzatuvga yo'naltirilgan modullar mavjud bo'lishini talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oliy ta'lim fizika yo'nalishida foydalanilayotgan darslik va qo'llanmalar ko'pincha nazariy qonuniyatlarni izchil bayon etish bilan cheklanadi, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan topshiriqlar, empirik metodga asoslangan laboratoriya vazifalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Masalan, A. M. Madaliyev o'z dissertatsiyasida amaliy mashg'ulotlarning mazmunini takomillashtirish jarayonida "talabalarning mustaqil fikrlashini, tajriba va kuzatuv asosida masalalarni mustahkamlashni" asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatgan. ^[1]



D. E. Axmedovanning “Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning nazariy asoslari” nomli tadqiqot ishida esa zamonaviy ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni rivojlantirish zarurati va uning kredit-modul tizimi sharoitidagi metodik asoslarini o’rganishga bag’ishlangan. Ta’lim sifatini oshirish uchun ilmiy-texnik yondashuvlar va innovatsion metodikalar qo’llash muhimdir. Metodik jihatdan, mustaqil ta’limni kredit-modul tizimiga moslab tashkil etish modeli ishlab chiqish asosiy maqsad bo’lib, bunda shaxsga yo’naltirilgan, kompetensiyaviy va motivatsion yondashuvlar asos sifatida ko’rib chiqilgan. Mustaqil ta’limni tashkil qilishda o’z-o’zini faollashtirish, individual tanlov, ijodiy yondashuv prinsiplari asosida elektron platformalar va zamonaviy texnologiyalar, xususan Moodle, Edmodo, onlayn test tizimlari va sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, Midjourney)dan foydalanish taklif qilingan. Mustaqil ta’limga oid pedagogik determinantlar dinamikligini aniqlash, kasbiy rivojlanish strategiyasi bilan mustaqil o’qitish mazmunini uyg’unlashtirish va mustaqil ta’lim texnologiyasini dialogli, kreativ usullar bilan boyitish muhimligi o’rganilgan. ^[2]

Dj. U. Irkabayevning “Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o’qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish” nomli tadqiqot ishida esa texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini zamonaviy axborot texnologiyalari (kompyuter simulyatsiyalari, elektron o’quv dasturiy ta’minotlar, virtual laboratoriyalar) asosida o’qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Raqamlashtirish jarayonida aniq fanlarni axborotli o’qitish tamoyillari (virtuallik, algoritmlilik) bilan uyg’unlashtirish ehtiyoji bilan asoslangan. Fizika yo’nalishida optika va elektromagnitizm bo’limlari asosida interaktiv modellar (masalan, RLC kontur, yorug’lik sinishi) ishlab chiqilgan bo’lib, laboratoriya ishlariga virtual muhitda tajriba o’tkazish metodikasi joriy etildi. Mustaqil ta’limni rivojlantirishda talabalar elektron resurslar asosida bilim egallashi, muammoli topshiriqlar yechishi va virtual eksperimentlar o’tkazishi orqali bilim va ko’nikmalarini mustahkamlashi ta’minlanganligi alohida e’tibor loyiqdir. ^[3]

Xorijiy manbalarda esa empirik metodga alohida e’tibor qaratilgan: Edward F. Redish “Research-Based Course Materials and Assessments for Upper-Division Electrodynamics” nomli loyihasida nazariy tushunchalarni interaktiv modellar va tajriba asosidagi muammoli topshiriqlar bilan birlashtirish orqali talabaning mustaqil tahlil va tadqiqot kompetensiyasini shakllantirishga erishgan. ^[4]

Fizikaning elektrodinamika bo’limi o’zining texnik fanlarga asos yaratishi jihatidan talabalarning amaliy fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi eng muhim bo’limlardan biri hisoblanadi. Elektrodinamika elektr maydonlari, elektromagnit to’lqinlar va ularning xususiyatlari bilan bog’liq nazariy va amaliy masalalarni o’rganadi. Ushbu bo’lim texnika sohasida ishlatiladigan ko’plab texnologiyalarning nazariy asosidir, masalan:

- elektr uzatish tizimlari;
- radiotexnika va telekommunikatsiya;
- magnit maydon asosida ishlaydigan mexanizmlar.

Shu boisdan, elektrodinamika bo’limini o’qitishda talabalarni mustaqil ta’lim orqali bilim olishga yo’naltirish nafaqat ularning texnik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni zamonaviy fan va texnologiyalar bilan ishlashga ham tayyorlaydi. Empirik yondashuv esa bu jarayonda samaradorlikni oshiradi, chunki u talabalarni tajriba va kuzatuv orqali o’rganishga undaydi. ^[5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalar uchun mustaqil ta’lim jarayonida empirik metodni tadbiq etish – nazariy bilimlarni faqat memoriza (o’zbek tilida “yod olish”) qilib o’rganishdan holi, balki hodisalarni kuzatish, tajriba o’tkazish va natijalarni tahlil qilish bilan bog’liq faoliyatni o’z ichiga oladi. Bu jahon ta’lim tajribasida yuqori samaradorlik bilan tavsiflanadi. ^[6]

O’quv-uslubiy adabiyotlar esa shu talabga javob berishi lozim: nazariy blokdan mustaqil vazifa va empirik topshiriqlarga o’tishni ta’minlovchi tuzilishga ega bo’lishi zarur. Unda talaba mustaqil ravishda eksperimentni rejalashtirishi, ma’lumotlarni yig’ishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishi kerak. Bu esa o’z navbatida o’qituvchining metodik qo’llab-quvvatlashi bilan birga o’quv adabiyotining mazmuniy-metodik tizimini takomillashtiradi.

X. Maxmudovanning “Oliy ta’limda fizika fanlarini o’qitish metodikasi” o’quv-uslubiy majmuasi oliy ta’limda fizika o’qituvchilarining metodik tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Unda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o’quv jarayoniga tatbiq etish va talabalar mustaqil ta’lim ko’nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan.

Majmua mazmunida empirik va nazariy usullarni birgalikda qo’llash asoslab berilgan. Unda muammoli vaziyat yaratish, kuzatish, tajriba o’tkazish va natijalarni tahlil qilish kabi talabani faol fikrlashga undovchi metodlar keltirilgan. Muammoli ta’lim, hamkorlikda o’qitish, loyiha metodi, didaktik o’yinlar va testlar – talaba mustaqilligi va ijodiy faolligini kuchaytiradi. Mustaqil ta’limning maqsad va vazifalari aniq belgilangan: talaba ilmiy axborot bilan mustaqil ishlashi, nazariy bilimni amalda qo’llashi, keys, loyiha va testlar orqali darsda faol ishtirok etishi ko’zda tutilgan. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos keladi.



Majmua elektrodinamikani o'qitishda ayniqsa samarali. Chunki bu bo'lim nazariya va tajriba asoslariga tayangan. Talaba elektromagnit hodisalarni modellash, simulyatsiya qilish va real tajribalar orqali o'rganishi mumkin. Natijalarni empirik va nazariy jihatdan solishtirish imkoniyati kengayadi.

Elektrodinamika bo'yicha muammoli topshiriqlar, mustaqil laboratoriya ishlarining tashkil etilishi, qurilmalarning ishlash tamoyilini loyiha asosida o'rganish talabani bilish jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi. [7]

L. Zaripov, H. Xayitov, Z. Toxirovlarning "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" nomli metodik qo'llanmasi oliy ta'limda fizikaning, xususan, elektrodinamika bo'limini o'qitishda talabalar mustaqil ishlashini samarali tashkil etishga qaratilgan. Unda talabaga bilimlarni nafaqat nazariy darajada olish, balki ularni amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va masala yechish orqali mustahkamlash imkoniyatlari ko'rsatiladi. Mustaqil ishlarda talaba o'z bilimini mustaqil tarzda o'rganadi, adabiyotlar va ilmiy manbalarni tahlil qiladi, ish rejasi tuzadi va natijalarni himoya qilish orqali o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Empirik metodlar qo'llanilsa, talabalar olingan nazariy bilimlarni real eksperimentlar va mashqlar orqali tekshiradi, ularni amalda qo'llash orqali tushunishini chuqurlashtiradi. Bu jarayon talabani ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi, ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Elektrodinamika bo'limida metodik qo'llanma nazariy bilimlarni laboratoriya mashg'ulotlari, masalalar va testlar bilan birlashtirishni tavsiya qiladi, bu esa talabalarda mavzuni yaxlit va puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, qo'llanma zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. [8]

Masalan, Madaliyevning ishida "barion va lepton zaryad sonlari", "g'alati va maftunkor zarralar" kabi jarayonlarni amaliy mashg'ulotlar mazmunida integratsiyalash orqali talabani mustaqil fikrlash asoslarini kengaytirish mumkinligi ko'rsatilgan. [1]

Yana bir jihat – o'quv adabiyotida empirik metodni qo'llash, ya'ni laboratoriya, modellash, simulyatsion komplekslar va raqamli vositalarning (multimediya, virtual laboratoriyalar) qo'shilishi bilan talabani mustaqil ta'limga bo'lgan qiziqishi ortadi hamda o'zlashtirish darajasi oshadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida aniqlandi: mavjud darslik va qo'llanmalarning ko'pchiligi empirik metodli mustaqil ta'limga mos shaklda emas, tajriba va kuzatuvga yo'naltirilgan topshiriqlar yetishmovchiligi talabani faol o'qish uslubini cheklaydi. Shu bois, zamonaviy adabiyot yaratishda quyidagi tavsiyalar taqdim etiladi:

- nazariy mashg'ulotlardan keyin mustaqil empirik mashg'ulotlar bo'lishi;
- raqamli va interaktiv resurslar bilan boyitilgan modulni joriy qilish;
- uchinchi dan, adabiyot ichida talaba uchun mustaqil tadqiqot yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'lishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, fizikaning elektrodinamika bo'limini o'qitishda mustaqil ta'limni empirik metod asosida tashkil etish zamonaviy ta'lim jarayonining eng samarali yondashuvlaridan biridir. Empirik metodning asosiy ustunligi shundaki, u talabalarning o'quv jarayonida faqat tayyor nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, hodisalarni kuzatish, eksperiment o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va ularni nazariy asoslar bilan bog'lash imkonini beradi. Bu jarayon ilmiy tafakkurni rivojlantiradi, kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantiradi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, amaldagi o'quv-uslubiy adabiyotlarda empirik yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari yetarli emas. Talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish uchun mavjud darslik va qo'llanmalarda tajribaviy mashg'ulotlar, kuzatuv va tahlilga asoslangan topshiriqlar tizimini kengaytirish zarur. Shuningdek, o'quv jarayoniga raqamli va interaktiv vositalarni integratsiya qilish, virtual laboratoriyalar va simulyatsion muhitlardan foydalanish talabani faolligini oshiradi, mustaqil o'rganish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Empirik metod asosidagi mustaqil ta'lim tizimi, bir tomondan, talabani bilish faoliyatini faollashtiradi, ikkinchi tomondan, fizika fanining nazariy mohiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Shunday qilib, bu metod ta'lim jarayonining subyekti sifatida talabani faol ishtirokini ta'minlaydi, uni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlaydi. Ayniqsa, elektrodinamikadagi elektr va magnit maydonlar o'zaro ta'siri, Lorens kuchi, elektromagnit induksiya hodisalari kabi mavzular empirik metod asosida o'qitilganda talaba tomonidan ancha samarali o'zlashtiriladi.

O'quv adabiyotlarini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar muhim:

- nazariy materiallar bilan bir qatorda empirik topshiriqlarni tizimlashtirish;



- tajriba asosida bilim hosil qilishni ta'minlovchi didaktik topshiriqlarni ishlab chiqish;
- interaktiv vositalar, simulyatsiyalar va raqamli o'quv platformalar bilan o'qitish jarayonini uyg'unlashtirish;
- talabalarning mustaqil kuzatish, natijalarni qayd etish, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini baholash uchun mezonlarni belgilash.

Shuningdek, xalqaro tajriba (Redish, Brown, Smith va boshqalar) shuni tasdiqlaydiki, empirik metod asosida o'qitilgan elektrodinamika kurslari talabalarning faolligini oshiradi, nazariy tushunchalarning amaliy qo'llanilishini mustahkamlaydi va o'quv jarayonini tadqiqot asosiga ko'chiradi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bunday metodologiyani bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur. Bu esa ta'limning ilmiyligini, mustaqilligini va innovatsion yo'nalishini kuchaytiradi.

Umuman olganda, empirik metod asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim elektrodinamikani o'qitish samaradorligini oshiradi, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi, ularni tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur yondashuv oliy ta'limda fizika fanini o'qitish tizimini yangilash va modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madaliyev A. M. "Elementar zarralar fizikasi bo'limi amaliy mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish metodikasi" (PhD dissertatsiyasi). Qo'qon DPI, 2023. <https://namdu.uz/books/16922>
2. D. E. Axmedova. "Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy asoslari" avtoreferat. Toshkent–2024.
3. Dj. U. Irkabayev. "Texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish" avtoreferat. Chirchiq–2023.
4. Redish E. F. "Research-Based Course Materials and Assessments for Upper-Division Electrodynamics". University of Maryland, 2018.
5. Abdullayev B. I. "Mustaqil ta'limni empirik metod asosida tashkil etish (fizikaning elektrodinamika bo'limi misolida)". Ilmiy-metodik jurnali "Tadqiqotlar", 51(4), 2024. <https://scientific-jl.org/tad/user/setLocale/ru?source=/tad/article/view/6282>
6. Brown J.; Smith A. "Empirical Approaches in Advanced Electrodynamics Learning". USA, 2021.
7. X. Maxmudova. "Oliy ta'limda fizika fanlarini o'qitish metodikasi". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent–2016.
8. L. Zaripov, H. Xayitov, Z. Toxirov. "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" metodik qo'llanma. Toshkent–2023.
9. Safarmatov U. S., Sheraliyev S. S., Irkaboyev Dj. U., Abdullayev B. I., Irkinov M. B., Kuchkharov Sh. H., Bekmurodov E. (2024). Bir tekis chiziqli harakat asoslari: analitik yondashuv. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 3(7), 191–201. <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/5273>
10. Sheraliev S. S. Integrated Technique for Solving Problems in Physics Using MathCad Programs and Crocodile Technology 3D. Eastern European Scientific Journal, 2016, No. 4, pp. 105–109.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.